

**SHUKUR XOLMIRZAYEV ROMAN VA HIKOYALARIDA
YORITILGAN QIRRALAR VA ULARDA INSON VA TABIATNING AKS
ETISHI**

Meliyeva Parvina

Yuridik fakulteti

Sotsiologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining eng yirik vakillaridan biri, oltin qalam sohibi Shukur Xolmirzayevning hayoti va ijodi, uning asar, qissa, hikoya va romanlarida yoritilgan tasvirlar haqida to'xtalamiz. Shoir XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchidir. U o'zining yuksak badiiy mahorati bilan, yaratilgan betakror nasri bilan o'zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'ringa egaligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: mafkura, romantik pafos, qissa, hikoya, janr, pyesa.

Shukur Xolmirzayev 1940-yil 24-mart kuni Surxondaryo viloyati Boysun tumanida tavallud topgan. U Toshkent davlat universitetining Jurnalistika fakultetida tahsil oldi. Shoirning dastlabki hikoya va ocherklari 1958-yildan nashr etila boshlandi. Shukur Xolmirzayev ijodining ilk davridayoq hikoya bilan bir qatorda qissa janrida ham qalam tebratib, "Oq otli" (1962), "To'lqinlar" (1963), "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" (1965) qissalarini yaratdi. Bu asarlar 60-yillardagi o'zbek qissalarining eng yaxshi namunalaridan bo'lib qoldi. Ushbu qissalar shoirning talabalik yillarida yozilgan bo'lib, tengqurlari hayotiga bag'ishlangan.

Xususan "To'lqinlar" qissasida zamondoshlarimizning murakkab taqdirini qalamga olinishi va o'ziga xos mahorati bilan Abdulla Qahhorning e'tiborini tortgan va ulkan adib talaba Shukurga maktub bitib, uni qutlagan edi.

Yozuvchining “O‘n sakkizga kirmagan kim bor?” qissasi avlodlar qismatiga, aniqrog‘i o‘z avlodi-tengqurlari hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib, voqelik ilk muhabbat iztiroblari tarixida tasvirlanadi.

Adib hikoya janrini Abdulla Qahhordan keyin yana bir yuqori pog‘onaga ko‘tara olgan sermahsul ijodkordir. Yozuvchining “Tog‘larga qor tushdi”, “Olis yulduzlar ostida”, “Hayot abadiy”, “Og‘ir tosh ko‘chsa”, “Bodom qishda gulladi” kabi hikoyalar to‘plamining nashr qilinishi milliy adabiyotimizning hikoyachilik janridagi katta yutug‘i desak, asl mubolag‘a bo‘lmaydi.

Sh. Xolmirzayevning hikoya va qissalarida, bir tomondan, yoshlik va talabalik yillarining o‘ziga xos romantikasi ifodalangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi tug‘ilib o‘sgan Boysun tumanida yashovchi turfa tabiatli kishilar hayoti, jamiyatda va ular ruhiy olamida kechgan kurash va o‘zgarishlar o‘zining badiiy talqinini topdi. Keyinchalik Boysun va boysunliklar hayoti Shukur Xolmirzayev ijodining asosiy mavzusi darajasiga ko‘tarilib, yozuvchi ijodida realistik tasvirning ustuvor yo‘nalishga aylanishida muhim omil bo‘ldi.

Shukur Xolmirzayev voqelikdagi murakkab hayotiy jarayonlar va kishilarning ziddiyatlardan iborat ruhiy olamini kashf eta borgani sayin uning dastlabki hikoya va qissalaridagi romantik pafos endi o‘z o‘rnini realizmga bo‘shatib berdi va yozuvchining o‘zbek adabiyotiga “shafqatsiz realism” unsurlarini olib kirishiga imkoniyat yaratdi.

XX asrning 80-90-yillarda yaratgan asarlarida mazkur davrdagi jamiyat va xalq hayotining chuqur badiiy tahlilini berdi. Yozuvchining “Qil ko‘prik” romani va “Qora kamar” (1987) pyesasida shu mavzu o‘z ifodasini topdi. Ularda adashgan kishilar fojiasi obrazlarda yorqin gavdalantirilgan.

Shukur Xolmirzayev dramaturgiyaga ham qo'l urib, "Qora kamar" pyesasini yozdi, unda o'tgan asrning 20-yillari boshlaridagi milliy ozodlik harakati, mustaqillikka erishish yo'lida olib borilgan ziddiyatli kurashlar aks ettiriladi. U bu asari orqali bosmachilarni tamg'ali o'zbek vatanparvarlarini ilk bor ulug' ozodlik, mustaqillik g'oyasi uchun qahramonona kurash olib borgan fidoyi millatparvar qiyofasida haqqoniy badiiy aks ettirib berdi.

Sh. Xolmirzayevning "Ot egasi", „Podachi“ hikoyalarida insonning hayvonga muhabbati "Ko'kboy" hikoyasida hayvonning insonga sadoqatini ko'ramiz. E'tibor qilgan o'quvchi yozuvchining aksar hikoyalarida ayni mavzuga murojaat etilib, tabiatga aloqador gaplar katta ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolar, inson va uning taqdiri, tarbiyasi haqidagi falsafiy fikrlar bilan tutashib ketganligini ko'radi. Inson tabiatdan tirqishsiz devor orqali ajralib turmaydi, barcha borliq, mavjudot biri ikkinchisidan oladi yoki beradi.

Ushbu prinsip nafaqat inson va tabiat o'rtasidagi munosabatda amal qilinadi, balki bu tuyg'u inson va hayvonot dunyosida, ularning o'zaro munosabatida ham ko'rinadi. Bunday uzviy bog'liqlikni aks ettirgan hikoyalarda bir dunyo bilan ikkinchi dunyoni, bir olam bilan ikkinchi olamni vafo, sadoqat, mehr-muhabbat tushunchalari bog'lab turadi.

Shukur Xolmirzayevning tabiat va inson munosabatlariga bag'ishlangan hikoyalari o'zining rang-barang badiiy talqiniga ega ekanligini kuzatish mumkin. Bu jihat yozuvchining nafaqat hikoyalarida, balki uning qariyb barcha asarlarida-qissa, esse, romanlarida ham ko'zga tashlanadi, ulardan doim tabiatga murojaat etiladi, o'quvchiga tabiatning yangi-yangi sir-asrorlari oshkor qilinadi.

Serqirra ijodkor Sh.Xolmirzayevning „Hukumat“ nomli hikoyasi tahsinga sazovordir. Bu hikoyada o‘z umrini sovet hukumati uchun o‘z jonini fido qilgan insonlarning ayanchli taqdiri haqida so‘z boradi. Hikoyaning bosh qahramoni Sovet mafkurasiga shu qadar berilgan ediki, butkul o‘z manfaatlarini unutadi. Puch va’dalar ustiga qurilgan hokimiyat uchun uyidagi bor-yo‘q narsalarni ham olib chiqib topshiradi. Hikoya boshlanishi asar bosh qahramoni tomonidan o‘zi rais bo‘lib ishlagan paytlaridagi bir qozoq kampirning so‘zlarini esga olib o‘tadi. Bechora qari kampir rais degan so‘zni ayta olmasdan meni “o‘kimat opoy”, boshlig‘imni esa “o‘kumat og‘ay” deb chaqirardi deydi. Oradan yillar o‘tadi, asar qahramoni ham qarib, taxminan o‘sha kampir yoshiga kiradi. Uning o‘zi ham qarigach, raisni “hukumat bolam” deya chaqiradigan bo‘ldi. Hikoya boshida keksa bir ayol va uning gaplarini keltirilib o‘tilishi bejiz emas. Negaki, ikkisi bir biridan butkul farq qiluvchi insonlarning yakunda qarib, hech bir ishga yaramay qolganidan keyingi taqdiri bir xil. Qozoq kampiri faqat xo‘jalik, uy ishlari bilan shug‘ullanuvchi bir ishchi, biroq bosh qahramon juda saviyali, bilimli u faqat hukumat uchun boridan kechgan oddiy bir fidoiy. U hukumat uchun xizmat qilgan, xalq uchun emas! Shunday bo‘lsa-da ikki inson ham bir tashlandiq va keraksiz holga tushadi. Hikoya bosh qahramoni timsolida biz butun ong-shuurini sovet mafkurasi butkul qurshab, chirmab olgan bir oddiy odamni ko‘rishimiz mumkin. Chunki shu inson bu tuzum uchun insoniylik deya atalmish go‘zal fazilatni toptagan, qanchadan qancha insonlarni norozi qilib, qarg‘ishiga qolgan. O‘z davrida qo‘shxotinlik, quloqlashtirish kabi siyosat avj olgan paytda bu hukumatning chirkin ishlariga “hissa qo‘shgan”.

Har bir inson o'zgacha bir takrorlanmas olamdir. Bu borada, ayniqsa, ijodkor xalq ajralib turadi. Ular doim nimadirlar yaratadi, olamdan o'zgachalik, yangi bir nafas izlashadi. Ular bu izlanishlar natijasida oddiy insonlar hech ham anglay olmaydigan bir go'zallikni qalbdan his etishadi. Adibning "Quyosh-ku falakda kezib yuribdi" nomli hikoyasi ham ayni shu haqda.

Shoirning "Kulgu bilan kuldirgan" (1972) hikoyasida Shukur Xolmirzayev vatan go'zalligi, boyligi, umuman, tabiatga befarq bo'lmagan, uni sevuvchi kishilarni tashvishga solayotgan-tabiat boyliklarini asrash masalasini ilgari suradi va bu masalaning mohiyatini oddiy bir voqea tasviri orqali ko'rsatadi. "Kulgu bilan kuldirgan" hikoyasida bosh qahramon tog'dagi kakliklar haqida qayg'uradi, bir-ikki qushni emas, umuman, hududdagi barcha qushlarni qahraton ayozdan omon chiqarib olish g'amini yeydi. "Jarga uchgan odam" da esa o'zi tabiat jonkuyari qo'lidan ayovsiz jazolanadi. Yozuvchining bu kabi asarlarida aks etgan o'zboshimchalik oqibatida yuzlab tog' qishloqlari aholisi vohalarga ko'chirilib, yashnagan go'shalar vayronaga aylangani, ming yillik tarixiy obidalarining qarovsiz qolib ketgani, xalq kelajagini ta'min qiladigan yer suvning isrof bo'layotgani haqidagi fikrlar va tashvishli mulohazalar ijodkor izhor qilayotgan xalq dardining in'ikosidir.

Tabiatga yondashishdagi mazkur prinsipni izohlab, Sh.Xolmirzayev aytadi: «...Gap shunday ekan, gap tabiatni qo'riqlash, uni boyitib, boyliklarini saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazishdek sharaflilik ekan, bu masalaga hamma bir yoqadan bosh chiqarishi kerak... Ana shunda bebaho tog'larning jamoli xira tortmaydi, uning go'zalligi boyligi o'zi bilan qoladi...». Sh.Xolmirzayevning inson va tabiat mavzusiga bag'ishlangan hikoyalarining bir qismida tabiatning maftunkor

go'zalligi aks ettirilsa, boshqalarida tabiatga yovuzlarcha munosabat, uni talon-toraj qilishlar qoralanadi.

Sh.Xolmirzayening so'nggi romani "Dinozavr"dir. Muallifning aytishicha: "Kuchlilar yengadi, kuchsizlar yengiladi, deyilgan nazariya noto'g'ri. Agar kuchlilar yengish qobiliyatiga ega bo'lganlarida, avvalo, dinozavr yengan bo'lardi. Yo'q, u o'ladi. Sabab? U shakllanib bo'lgan. Shundoq-da: ko'p mardlar maydonga kiradilar. Ular o'limlarini bilishadi. Ammo ular uchun orqaga yo'l yo'q. Qo'rqqoqlar-chi? O'shandayoq kavaklariga kirib olishganlar...".

Shoirning yuqorida keltirilgan ko'plab hikoya, romanlarida yoritilgan voqealarga qarab, uning asarlarida ko'proq tabiat va uning asrorlar keltirilganini ko'rish mumkin. Uning ijodidagi tabiat o'quvchiga estetik zavq lirik kayfiyat bag'ishlovchi vosita, siqilgan yurakka taskin beruvchi maskan sifatida talqin qilinadi. Tabiatni har tomonlama, ikir-chikirlarigacha, chuqur bilimdonlik bilan tasvirlash yozuvchi ijodiy prinsipining asosiy xususiyatlaridan biridir. Sh. Xolmirzayev asarlarida tog', cho'l, qishloq tabiati tasvirlari ko'p uchrasa-da, ammo bu tasvirlar hech qachon bir-birini takrorlamaydi, manzaradagi rang-baranglik tasvirda o'ziga xoslikni ta'minlagan. Shoir ijodi-o'zbek hikoyachiligida katta maktab hisoblanadi desak hech adashmagan bo'lamiz.

Tabiat va inson muammolarini yoritgan asarlarida Sh.Xolmirzayev o'z yurti tabiatini ko'z-ko'z qiladi, ana shu yurt tabiatiga mehr qo'ygan, uni asrab-avaylagan shaydoyi kishilarni o'ziga yaqin oladi va ulug'laydi, o'z ne'matlarini tuhfa etgan tabiat boyliklaridan noqil foydalanib, shafqatsizlarcha munosabatda bo'lgan kishilar fojiasini fosh etadi. Tabiat va inson munosabatlarini ko'rsatish orqali yozuvchi tabiatning barcha betakror go'zal manzaralari insonga estetik zavq, kuch-qudrat

baxsh etadi, tabiatga yangilanish inson qalbida mehr-shafqat, g'ayrat-shijoat, yashash va ishlashga havas uyg'otadi, ijodiy ilhom, aql-zakovat bag'ishlashini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek adabiyotining oltin qalam sohibi, o'zgacha janrda ijod qilib, yosh avlodga juda ko'p hikoya, qissa va romanlarni yozgan Shukur Xolmirzayev ijodi hozirgi zamon o'zbek adabiyotining yorqin va mazmundor sahifalaridan joy egallagan. Bu serqirra adib biz maydachuyda, e'tiborga arzimaydigan deb hisoblaydigan narsalardan ham go'zallik topa olardi. U shunchaki bir oddiy kuzatuvchi emas, balki ishtirokchiga aylanadi. Shu sabab ham har bir ijodiy ishiga, har bir asar qahramoni siymosiga qalbini, butun borlig'ini baxsh etadi.

Shukur Xolmirzayevning o'zi hayotni teran anglagan, insoniyat ruhiyatidagi o'zgarishni seza oladigan inson edi. Shuning uchun ham u asarlarida tabiat qonuniyatlari asosida ish ko'radi, bu tabiiylik hech qachon buzilmasligi kerakligi, buzilgan taqdirda katta falokatlar, fojialar keltirib chiqarishi mumkinligi haqidagi xulosalar chiqaradi. Shukur Xolmirzayev adabiyotga Surxon koloritini, tabiati, havosini olib kirgan yozuvchi. Olib kirganda ham betakror uslubda zavq bilan ifodalay oldi. Ana shundan, u o'zbek hikoyanavisligida o'ziga xos mustahkam cho'qqi yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shukur Xolmirzayev. Adabiyot, yozuvchi va ijod haqida & Nazar Eshonqul. Shukur Xolmirzayev haqida | Xurshid Davron kutubxonasi.

2. Shukur Xolmirzayev. "Bir oqshom suhbat yoki do'stim Ro'zi Choriyev". www.kh-davron.uz.
3. R.Soatova.O'zbek adabiyotida Shukur Xolmirzayevning ijodining o'rni.
4. Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodi. Tarjimai holi. Asarlari.
5. O.Eshdavlatova, G.Jo'rayeva. Shukur Xolmirzayev o'zbek milliy hikoyachilik san'atining san'atkori.
6. Shukur Xolmirzayev tarjima hol. Asarlari, romanlari, hikoya va qissalari
7. Shukur Xolmirzayev. Adabiyot, yozuvchi va ijod haqida.
8. F.X. XAKIMOVA. (2022). "SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA TABIAT MUHOFAZASI MASALASI", ActaCAMU Scientific journal, 1(ISSN: 2181-4155), 138-141-betlar.